

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Bot-bot qishlog'iga qarashli hududda tosh davriga oid manzilgoh aniqlandi

Jomboy tumani 51-maktabning tarix fani o'qituvchisi Muhriddin Xolsaidov Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti ma'muriyatiga G'o'bдин tog'ida joylashgan Yetimsoy darasida bir nechta qoyatosh suratlarini aniqlagani haqida murojaat qildi. SamDU Arxeologiya kafedrasи dotsenti O. Ergashev va O'zFA Milliy Arxeologiya Markazi Samarqand Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi B. Sayfullaevlар mazkur ma'lumot asosida M. Xolsaidov, O'. Qobilovlar hamrohligida G'o'bдин tog'ining Bulung'ur tumaniga qarashli bo'lган Yetimsoy darasiga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida qoyatosh suratlari bilan birga Bot-bot qishlog'i xududida tosh davriga oid makon aniqlandi. Yer yuzasidan tosh davriga oid chaqmoqtosh, slanets va kvartsdan ishlangan bir nechta tosh buyumlar qo'lga kiritildi. Mutaxassislar dastlabki kuzatuv ishlari va qo'lga kiritilgan artefaktlarga asoslanib, mintaqani arxeologik jihatdan tadqiq qilish muhim istiqbolga ega ekanligini ta'kidlashmoqda.



